

**4.2. AMALIY MASHG'ULOT. TO'LIQ VA CHALA
DOMINANTLIK BO'YICHA MASALALAR YECHISH**

Maqsad: to'liq va chala dominantlik bo'yicha masalalar yechish, dominant, retsessiv, gomozigota, geterozigota tushunchalarini o'zlashtirish, mono, diduragay chatishtirishga doir masalalar yechishni o'rganish.

berilgan	gen	genotip
tolaning malla rangi	A	AA
tolaning oq rangi	a	aa
tolaning novvot rangi	A, a	Aa

1-topshiriq. G'o'zaning mallarang tolasi oq tolasi ustidan chala dominantlik qilganligi uchun F_1 bo'g'inda novvotrang tolali forma hosil bo'ladi. Agar F_1 duragaylari o'zaro chatishtirilsa, F_2 da qanday natija kutish mumkin?

P	♀	fenotip	mallarang	x	♂	oq rang
		genotip				aa
gametalar		A				a
F_1					Aa	
			novvotrang			

P	♀	fenotip	novvotrang	x	♂	novvotrang		
		genotip				Aa		
gametalar		A	a		A	a		
F_2		AA	Aa	Aa	Aa	aa		
		mallarang	novvotrang		oq rang			
		25%	50%		25%			
		genotipik nisbat			1:2:1			
		fenotipik nisbat			1:2:1			

2-topshiriq. Namozshomgulda gultojibargning qizil bo'lishi oq bo'lishidan chala dominantlik qiladi. Namozshomgulning qizil gultojbargli formalari oq gultojbargli formasi bilan chatishtirilganda (F_1) pushti gultojbargli, ikkinchi chatishtirishda esa (F_2) 50% pushti, 50% oq gultojbargli formalar hosil bo'ladi. Ikkinchi tajribadagi ota-onva F_2 duragaylarning genotipini aniqlang.

P	♀	fenotip	pushtirang	?	x	♂	oq rang
		genotip					?
gametalar		?					?
		fenotip	pushtirang	?			oq rang
		genotip					?

4.3. Amaliy mashg'ulot. Kodominantlik va pleyotropiyaga doir masalalar yechish

3-topshiriq. So'roqlar o'rnnini to'ldiring va masala tuzing.

P		fenotip genotip	? ?a	x		?
	gametalar		a		A	?
F₂		?	?	?	?	
	?		?		silliq	
	25%		50%		25%	
genotipik nisbat				?		
fenotipik nisbat				?		

4-topshiriq. Bangidevona o'simligida gulning qizil rangi oqligiga nisbatan chala dominantlik qiladi. Mevaning sirtida tikanning bo'lishi tekisligiga nisbatan to'la dominantlik qiladi. Qizil gulli, mevasining sirti tikanli bo'lgan o'simlik oq gulli, mevasining sirti tekis bo'lgan o'simlik bilan chatishdirildi. F₁da 960 ta, F₂ da 1888 ta o'simlik olindi. F₂ da olingan o'simliklarning nechtaşı ota-onalar formalarga o'xshaydi? Olingan natijalarni grafik ko'rinishda ifodalang.

5-topshiriq. Yumaloq, chipor tarvuz o'simliklari uzunchoq, yashil mevali o'simliklari bilan chatishdirilganda avlodda olingan o'simliklarning hammasi yumaloq, yashil mevali bo'lgan. Ikkinchchi tajribada tahliliy chatishdirish o'tkazilganda avlodda olingan o'simliklarni quyidagi fenotipik sinflarga ajratish mumkin: 20 ta o'simlik yumaloq, yashil mevali; 18 ta o'simlik yumaloq, chipor mevali; 19 ta o'simlik uzunchoq, yashil mevali; 21 ta o'simlik uzunchoq, chipor mevali. Chatishdirish uchun olingan barcha o'simliklarning genotipini aniqlang. O'rganilayotgan belgilarning irsiylanishini tushuntirib bering.

Muhokama qiling va xulosa chiqaring

- Belgilarning to'liq dominant holda irsiylanish mexanizmini sxematik tarzda ifodalang.
- Tahliliy chatishdirishda belgilarning irsiylanish qonuniyatlarini izohlang.
- Chala dominant holda irsiylanishda belgilar avlodlarda qanday namoyon bo'ladi?

4.3. AMALIY MASHG'ULOT. KODOMINANTLIK VA PLEYOTROPIYAGA DOIR MASALALAR YECHISH

Maqsad: kodominantlik va pleyotropiyaga doir masalalar yechishni o'rganish.

1-topshiriq. Gomozigota II qon guruhi ega bo'lgan qiz geterozigota III qon guruhi ega yigitga turmushga chiqdi. Ulardan tug'ilgan farzandlarning qon guruhlari qanday bo'lishi mumkin?

P	♀	fenotip	II qon guruh	x	♂	III qon guruh
		genotip	AA			BO
gametalar:		?				?
F₁			II qon		IV qon	
			?		?	

2-topshiriq. II qon guruh bo'yicha geterozigotali ayol III qon guruhli geterozigotali erkakka turmushga chiqsa, ulardan qanday qon guruhli bolalar tug'ilishi mumkin?